

O'zbek tilidagi noyob sun'iy chat-boti ishlab chiqildi

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Matematika instituti ilmiy xodimi Ruzmat Safarov tomonidan kompaniyalar faoliyati rivoji uchun noyob sun'iy intellekt chat-boti ishlab chiqildi. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi yurtimizdagi korxonalar va tashkilotlarning chatlarida mijozlar so'rovlarini qayta ishlash, biznes jarayonini avtomatlashtirish, xodimlarning ishlash samaradorligini oshirish va resurs xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, korxonalar mijozlariga xizmat ko'rsatishni yaxshilashdan iborat. Ushbu loyihani Davlat test markazi, vazirliklar, tibbiyot muassasalari, mobil aloqa kompaniyalari, internet do'konlar tizimida qo'llash mumkin. Hozirda loyiha test rejimida o'z ishini boshlagan(GPTuz-SmartBot).

